

V. SHEKSPIRNING INGLIZ NUTQ MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI

D. Ismoilova

FarDU o‘qituvchisi

E-mail: d.r.ismoilova@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ingliz tili umum e’tirof etadigan, nufuzli xalqaro til hisoblanib, bugungi kunda sayqallangan, ya’ni o‘z til me’yorlari orqali standartlashgan ko‘rinishga ega. Biz maroq bilan so‘zlayotgan bu tilning shu qadar rang-barang, ta’sirchan bo‘lishida buyuk ingliz dramaturgi va yozuvchisi, ko‘plab sonetlar va oq she’rlar muallifi Villiam Shekspirning hissasi ulkandir. Shuni ta’kidlash joizki, bugungi davrimizgacha Shekspir ijodini tadqiq qilgan, uning asarlarining turli nuqtalarini o‘rgangan ilm axli shu xulosaga kelganki, Shekspir – bepoyon, shuningdek kashfiyotchi ijodkor. Uning merosini o‘qigan har bir kitobxon mutolaa so‘nggida turli fikr, ibrat va xulosaga ega boladi.

Adib ijodini badiiy, falsafiy va ma’naviy, tarixiy jihatlarini ko‘p o‘rganilganligini hisobga olib, biz bu ijodkorning ingliz tili nutq madaniyatiga qo‘shgan hissasini o‘rganishga va ilmiy xulosalarni berishga harakat qildik. Shekspirning bemisl hissasini tizimli tadqiq qilish maqsadida, dastavval, nutq madaniyati termini tilning qaysi jihatlarini o‘z ichiga olishini aniqlab oldik. Tilshunoslikda nutq madaniyati termini ikki hil yondashuv asosiy qo‘llaniladi. Mazkur terminning dastlabki ma’nosi-tilshunoslikning tilni madaniyat quroli sifatida mukammallashtirish maqsadida me’yorlashtirish (tartibga solish) masalalarini o‘rganuvchi bo‘limi hisoblanadi. Keyingi, aynan ushbu tadqiqot ishining o‘zagi sifatida qo‘llaniluvchi ma’nosi esa og‘zaki va yozma adabiy til me’yorlari (talaffuz, urg‘u, so‘z qo‘llash, grammatika, uslubshunoslik qoidalarini) egallash, shuningdek, turli aloqa-aralashuv sharoitlarida tilning tasviriy vositalaridan nutqning maqsad va mazmuniga mos ravishda foydalanish mahorati demakdir.

Yuqoridagi ilmiy izohga asoslanib, biz ilmiy ishimizning tadqiqot yo‘nalishlarini aniqlab oldik. Buyuk ijodkor yuqorida ta’kidlangan har bir til aspekti rivoji, standartlashuviga o‘zining ulkan hissasini qo‘shganligini har bir bobda yoritib berdik. Shekspir yashagan XVI asrda ingliz tili o‘tish davrida bo‘lgan va bu asarda asar yozish shoirdan katta iste’dod talab qilgan. Bu adabiyot vakilida nutq mahorati ham qoyil qolarli darajada bo‘lganki, unga ko‘ra Shekspir o‘zaro mavjud bo‘lgan til birliklaridan

mazmunan eng to'g'ri, eng aniq, uslub va vaziyat nuqtai nazaridan eng maqbuli va ifodalisini tanlay olish mahoratidiga ega bo'lgan. Shubhasiz ingliz nutq madaniyatining har bir qirrasida Shekspirning o'ziga xos "imzo"si mavjud ekanligini ko'ramiz.

Dastlab, ijodkorning yaratuvchanlik jihatlarni tadqiq etadigan bo'lsak, adibning "Shekspirona" yozish uslubi ya'ni "Shekspir tili" haqida ma'lumot berish o'rindir.

Yaratuvchanlik va novatorlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan asarlaridagi har bir ibora, har bir nutq bo'lagi ta'sirchan ma'no bo'yoqlariga ega. Shekspir qaxramonlari nutqida olmoshlar o'ziga xos namoyon bo'ladi. Bu jihat bir ko'rinishda adibni savodsizlikda ayblagan zamondosh ijodkorlarning haqligini isbotlagandek tuyulsada, aslida ushbu holat "Adabiy huquq" yoxud "Shoir litsenziyasi" terminlarining amaldagi ko'rinishidir. Vaholanki ushbu "grammatik og'ishlar" asrlar o'tib, ingliz tilining foydalanish darajasini yanada yuqoriga ko'targan omillardan biari bo'lib xizmat qildi. Deyarli hamma asarlarida yozuvchi o'z uslubiga sodiq qolgan va bu uslub kitobxonning eng sevimli nutqiga aylangan, yillar o'tib esa tilshunos mutaxassislarning o'rganish obyektlaridan biri bo'lib kelmoqda. Shekspir merosining yaqqol ajralib turuvchi xususiyatlaridan biri, bu so'zlarning oxirigacha aks ettirilmisligi bo'lib, bu kitobxonni mulohaza qilishga undaydi. Bu yondashuv fanda ma'lum bo'lib, lingvistikada apokop deb nomlanadi. Apokop termini lotin tilidan olingan bo'lib, so'zning oxiridan bir yoki bir nechta tovush yoki harflarni tushirib qoldirish ma'nosini anglatadi.

God be wi' you: let's meet as little as we can. Our remedies oft in ourselves do lie;

Universal yozuvchi ko'p va o'irni foydalangan fonetik vosita- afarez bo'lib, bu ham adib merosining yanada ta'sirchan, o'ziga xoslikka ega bo'lishiga, kitobxonlarni zukkolikka chorlashga xizmat qilgan. Afarez- so'z boshidagi tovushni tushirib qoldirish, asosan urg'u olmaydigan unli tovushlar olib tashlanadi:

Point against point rebellious, arm' gainst arm. I'll bring him the best 'parel that I have;

Yana bir shunday lingvistik vosita senkop deb nomlanadi va u ham Shekspir merosini ajralib turadigan yozish uslubi xususiyatlaridan biridir. Senkop- so'z o'rtasida bir yoki bir necha tovushlarni olib tashlash hisoblanadi. Bunda asosan urg'u olmagan unli tovushlar tushirib qoldiriladi.

Sure, they are bastards to the English; the French ne'er 'got em; Weary se'nnights nine times nine;

Shekspir ijodining o'ziga xosligi uning bo'lishsizlik ma'nosini ham noan'anaviy tarzda ifoda etgani bo'lib, vaholanki yillar o'tib bu jihatlar "Shekspir tili" termini ostida jamlandi.

Put up your swords; you know not what you do. His countenance likes me not.

Shekspir ijodining novatorlik jihatlaridan yana biri, bu mavjud, hammaga ma'lum so'zlarni butunlay boshqa semantika bilan qo'llaydiki, bu usul adib asarlaridagi sirli ma'noni anglashga bo'lgan qiziqishni-da oshiradi. Shu so'zlarsirasiga buy va angel so'zlarni kiritishimiz mumkin.

Shekspir grammatik og'ishlariga namuna sifatida, so'roq gaplarda ham yordamchi fe'llarni tushirib qoldirganligini ko'rsatishimiz mumkin. Vaholanki, bu turdagi gap qurilmasi o'quvchilarning ongiga juda tez singadi va oson esda qoladi.

Know you where you are sir? Know you before whom, sir?

Shuningdek, ijodkor qo'llagan so'zlar va iboralar tilning adabiy leksikoni uchun asos bo'ldi. Adib yashab ijod qilgan davrda kashfiyotlar, diplomatik aloqalar, mustamlakachilik va jangu-jadallar natijasida yangi so'zlar oqimi shiddat bilan kirib kelayotgan, o'tish davri sababli til qoidalarida va lug'at tarkibida to'xtovsiz o'zgarishlar bo'layotgan bir paytda o'zidan o'chmas iz qoldira oldi.

Buyuk ijodkorning ingliz tili nutq madaniyati rivojiga qo'shgan hissalarida ichida yaratuvchanlik ajralib turadi. Ahamiyatlisi, uning neologizmlari ingliz tili lug'at boyligiga ulkan hissa qo'shgan. Shu bilan birga adib neologizmlarining haqiqiy miqdori haqida doim bahslar yuritib kelingan. Ingliz tili lug'atlari orasida eng to'laqonli deb baholanadigan Oksford lug'ati 2000dan ortiq so'zni Shekspir ixtiro qilgan degan xulosaga kelgan bo'lsa, bu miqdor vaqt o'tib kamaya bordi. Shekspirshunos olim Vorren King esa ijodkorning barcha asarlarida qo'llanilganjami so'zlar 17677 ta ekanligini, bular orasida adibga tegishli yangi so'zlar 1700tani tashkil etishini o'z risolasida ta'kidlagan bo'lsa, bu raqam ham yillar o'tib rad etildi. Chunki zamonaviy lingvistik tadqiqotlar korpus analiz yordamida aniq statistik natijaga erishilyapti. Shunday tadqiqotlarning olib borilishi va adibning zamondoshlari asarlarini ham chuqur o'rganish natijasida yuqoridagi 1700 ta yangi so'z ham faqatgina Shekspir asarlari yordamida ommalashgan, aslida bu so'zlar ijodkordan avvalgi yozma manbalarda uchraganligi ma'lum qilindi. Lug'atshunoslar va tilshunoslarning uzoq izlanishlaridan so'ng, uning neologizmlari miqdori 422ta atrofida ekanligiga xulosa qilindi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, Vilyam Shekspir ingliz tili rivojida, uning adabiy til sifatida shakllanishida va albatta ingliz nutq madaniyati rivojida ham o'chmas iz qoldirgan. Mana qariyb 5 asrdan buyon uning merosi ko'plab ilm sohalarining muhim manbasi sifatida o'rganilmoqda. Shu kabi tadqiqotlar bardavom ekan, buyuk ingliz dramaturgi, iste'dodli shoir vaaktyor mudom yashashda davom etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Complete works of William Shakespeare. World Library, 1990.
2. Satsio P.V. Shakespeare; Comedies, histories and tragedies. Corporate Head Quarters, 1999.
3. V.Shekspir. Romeo and Juliet. Higher School Publishing House, Moscow, 1972.
4. V.Shekspir. Sonnets. Global Language Resources. 2001.